Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar	2266
Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li	
Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach.....	2271
Komola Khikmatullaevna Usmanova	
Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari	2275
Boymanov Jasur Isroil o'g'li	
O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi	2279
Jobborov Farxod Bo'riyevich	
Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi	2282
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari	2286
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi	
Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida)	2291
Tursunov Mirolim Ahmadovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.....	2296
Z. S. Muxtorova	
Abdulla Avloniy pedagogik asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati.....	2300
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi	2304
Choriyeva Barno Alisher qizi	
O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan konstruktiv fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim (kimyo fani misolida)	2307
Azamatova Dilafruz Saydiganiyevna	
Совершенствование медиаграмотности будущих учителей начальных классов на основе интерактивных методов и геймификации	2311
Пулатова Муниса Садриддиновна	
Talabalarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	2317
Abdumannatova Nargiza Abdumajidova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish	2320
Raxmatova Nodira Imamovna	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishning ahamiyati.....	2323
Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi	
ESG tamoyillarining global ta'lim siyosatidagi o'rni	2328
Tursunova Shahzoda Baxromovna	



Internet kommunikatsiya vositalarining yoshlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga va ularning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri	2334
<i>Kamiljanova Malikaxon Ravshonbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish ...	2338
<i>Yusupova Nozima Mahamadaliyevna</i>	
Духовное воспитание и концепция совершенного человека в трудах Абдурахмана Джамии.....	2342
<i>Каримов Жамшид</i>	
Raqamli chalg'ish fenomeni sifatida fabbing: talabalarning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori tahlili...	2347
<i>Matchanova Dilbar Yusupboyevna</i>	
Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri.....	2350
<i>Jabborova Malohat Azimovna</i>	
Challenges and Limitations of Using AI in Language Teaching	2355
<i>Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi</i>	
Rus tilidagi tadqiqotlarning tarixshunoslik talqini	2358
<i>Axmatov M. M.</i>	
O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda "Keys-stadi" metodikasining ahamiyati	2362
<i>Xasanov Mansur Abrarovich, Muxammadiev Umarali Sheraliyevich</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darsida iqtidori o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari	2367
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar.....	2370
<i>Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna</i>	
Bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda jadid ma'rifatparvarlari metodikasini takomillashtirishning ilmiy asoslari.....	2374
<i>Mamaniyozov Shaxzod Abror o'g'li</i>	
O'quv jarayoniga moslashuv ijtimoiy-psixologik muammo sifatida	2378
<i>Sultanova Shahnoza Mirxalilovna</i>	
Ingliz va o'zbek tillaridagi sifatlarning qiyosiy tahlili	2382
<i>Raxmonova E'zoza Sherzod qizi</i>	
Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish	2385
<i>Karimov Ilhom Normamatovich, Alikulova Saodat Muxitdinovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	2389
<i>Yaqubova Dinora Bahodirovna</i>	
Ta'limning interfaol va innovatsion metodlari	2393
<i>X. K. Qarshiboyeva</i>	
Роль международных оценочных программ в оценке знаний учащихся.....	2396
<i>Каландарова Дилноза Самандаровна, Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи</i>	
Inkorporatsion topshiriqlarning texnologiya ta'limida fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati	2400
<i>Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna</i>	
O'zbek bolalar folklori tasnifi, janriy tarkibi va Oxunjon Safarov yondashuvi.....	2404
<i>O'rinova Maftuna No'mon qizi</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilish	2409
<i>Xudoykulova Nilufar Xamdamovna</i>	
The Future of AI in English Language Teaching: Trends, Predictions, and Research Directions.....	2414
<i>Mavlonova Sevinch Abdurkarim qizi</i>	
Muhandis-texnik talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	2418
<i>Nazarova Marg'uba Gulamovna</i>	
Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari	2423
<i>Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	2428
<i>Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna</i>	
O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili	2431
<i>Mavlanova Saidaxon Umarovna</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	2436
<i>Yuldashev Bahodir Narzullayevich</i>	



Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo'llari	2439
<i>Tursunonova Nozima Ilxomovna</i>	
O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari	2447
<i>Axmedova Gavhar Faxriddinovna</i>	
Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan	2451
<i>Abduxamidova Muyassar</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish	2457
<i>Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'siri	2460
<i>Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li</i>	
Developing Coordination and Balance in Athletics	2464
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Intellect xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish	2476
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
<i>Imomov Sirojiddin Ilhomovich</i>	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca	2486
<i>Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli</i>	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
<i>Kadirova Gulnora Xasanovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish	2496
<i>Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida)	2501
<i>M. M. Qosimova</i>	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
<i>Maxmudjonov I. I.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
<i>Muminova Dilfuza Bahromjanovna</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi	2510
<i>Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi	2513
<i>Safarova Shahlo Shuhratali qizi</i>	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
<i>Saidova Dilduza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi</i>	
Developing Strength and Endurance in Wrestlers	2526
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
<i>Shermumadova Diyorakhon Nurmuhamad kizi</i>	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish	2535
<i>Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li</i>	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
<i>Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimetriyasini bartaraf etish	2543
<i>To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'ldiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeomtsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Dilfuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limni rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafisini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhaxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov Toxir To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons tn the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	

XALQ OG'ZAKI IJODI VA FOLKLOR TURLARINING TA'LIMDAGI O'RNI

Safarova Nigora Oxunjonovna

Filologiya fanlari nomzodi, professor,
Buxoro davlat pedagogika instituti

ORCID: 0009-0008-4125-4310

Bozorova Nozigul Ramazonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchi

ORCID: 0009-0000-1671-2828

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda folklor janrlarining, xususan, ertaklar, rivoyatlar, topishmoqlar, maqollar, tezaytishlar va qo'shiqlarning o'quvchilarning nutqiy, axloqiy va estetik rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Xalq og'zaki ijodining bolalar tafakkuri, muloqot madaniyati va milliy ongini shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinib, ularni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali jihatlari asoslab berilgan. Shuningdek, folklor materiallaridan foydalanish ta'limning tarbiyaviy va didaktik samaradorligini oshirishi ilmiy xulosalar asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, folklor janrlari, ta'lim jarayoni, nutqiy rivojlanish, ma'naviy-tarbiyaviy ta'sir, milliy qadriyatlar.

Abstract: The article examines the educational significance of oral folk art and folklore genres in the teaching and learning process. It analyzes the impact of fairy tales, legends, riddles, proverbs, tongue twisters, and songs on students' speech development, moral education, and aesthetic awareness. The pedagogical potential of folklore in developing thinking skills, communicative competence, and national identity is highlighted. The study substantiates the effectiveness of integrating folklore materials into modern education and emphasizes their role as a valuable didactic and educational resource. The findings confirm that oral folk art contributes significantly to holistic learner development.

Key words: oral folk art, folklore genres, educational process, speech development, moral education, national values.

Аннотация: В статье рассматривается роль устного народного творчества и фольклорных жанров в системе образования и воспитания. Анализируется влияние сказок, легенд, загадок, пословиц, скороговорок и песен на речевое, нравственное и эстетическое развитие обучающихся. Раскрываются педагогические возможности фольклора в формировании мышления, коммуникативной культуры и национального самосознания учащихся. Обоснована целесообразность интеграции фольклорных материалов в современный образовательный процесс, а также показано их значение как эффективного дидактического и воспитательного средства. Сделаны выводы о высокой образовательной и воспитательной ценности устного народного творчества.

Ключевые слова: устное народное творчество, фольклорные жанры, образовательный процесс, речевое развитие, нравственное воспитание, национальные ценности.

KIRISH

Xalq og'zaki ijodi – millat ma'naviyatini, o'tmish tafakkurini, qadriyatlarini, e'tiqod va an'alarini o'zida mujassam etgan noyob madaniy xazinadir. Folklor inson tafakkurining in'ikosida muhim o'rin tutadigan, jamiyat ma'naviy dunyoqarashini shakllantiruvchi, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'lanishni ta'minlovchi vosita sifatida ta'lim-tarbiya tizimida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish, milliy g'oya asosida tarbiyalashda folklor turlaridan samarali foydalanish katta salohiyatga egadir.

Folklorning jonli va badiiy obrazlarga boy turlari – ertaklar, afsona va rivoyatlar, topishmoqlar, maqollar, tezaytishlar hamda lirik janrlar (qo'shiqlar, alamzada she'rlar) – nafaqat til va nutqni boyitishga, balki dunyoqarash, axloqiy tarbiya va ijtimoiy munosabatlarni anglashga xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodidan keng foydalanish zarurati ilmiy jihatdan asoslangan.

Mutaxassislar ta'kidlaganidek, "boshlang'ich ta'lim bosqichida folklor materiallari o'quvchilarning til madaniyatini shakllantirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ularda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda muhim o'rin tutadi". Boshqa tadqiqotlarda esa xalq og'zaki ijodi bolalar ongida obrazli tasavvur va mulohaza shakllantirish, madaniy merosga muhabbat uyg'otishda ta'sirchan omil sifatida tavsiflangan.



Bugungi raqamlashuv davrida folklorning ta'limdagi o'rnini faqat an'anaviy matnlar bilan cheklanib qolmasdan, balki multimediya, raqamli dasturlar va elektron resurslar orqali ham yuzaga chiqmoqda. Bu esa uning o'quv jarayonidagi ta'sirini yanada kengaytirish imkonini beradi. Shuningdek, YUNESKOning 2023-yilgi ma'naviy merosni saqlash to'g'risidagi hisobotida ham bolalar ta'limida milliy folklor elementlaridan raqamli shaklda foydalanish ta'limning inklyuziv va barqaror modellariga asos sifatida ko'rsatilgan.

Folklor turlari, ayniqsa, ertaklar, afsonalar, topishmoqlar, tezaytishlar va maqollar bolalar ongida dunyoviy va axloqiy tushunchalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bolalar ongining shakllanishida ularning tasavvuri, his-tuyg'ulari, emotsiyalari va ijtimoiy munosabatlari to'g'ri yo'naltirilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, xalq og'zaki ijodi farzandlar tarbiyasida tabiiy, zamonaviy ta'limga uyg'un milliy-ma'naviy manba sifatida xizmat qiladi.

Xalq ijodidagi obrazlar bolaning ichki dunyosi bilan muloqotga kirishadi: u faqat eshituvchi emas, balki faol qatnashuvchiga aylanadi. Masalan, ertakdagi yaxshi va yomon qahramonlarga berilgan xulosa bolaning tafakkurida axloqiy qadriyatlarni farqlash qobiliyatini shakllantiradi. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodi bolalarda til boyligini oshirish, nutqiy faollikni kuchaytirish, mustahkam xotira, mental faollik va ijodiy tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Psixolog B. M. Teplov ta'kidlaganidek, san'at (jumladan, og'zaki ijod) inson ongiga ta'sir qiluvchi kuchli vositadir. U insonning hissiy olamini, tasavvurini, irodasini faollashtiradi, fikrlash madaniyatini shakllantiradi. Xalq ertaklarining qahramonlariga taqlid qilish orqali bola o'zining shaxsiy "Men"ini anglay boshlaydi. Turkiyalik olim H. Özgür ta'kidlaganidek, bola o'zini muayyan qahramonga o'xshatishga urinadi va bu orqali ijtimoiy tajribasini anglamay turib shakllantiradi. Bu esa faol ijtimoiylashuv jarayonining boshlanishi demakdir.

Folklorning o'rganilishi faqat badiiy adabiyot doirasida emas, balki lingvistika, psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik fanlari kesishmasida ham katta ilmiy salohiyat kasb etadi. Mazkur interdisciplinar yondashuv folklorning ta'limdagi rolini yanada kengaytirib, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Bolalarni og'zaki ijod vositalari orqali tarbiyalash ularning estetik ta'bi, axloqiy qarashlari, dunyoqarashi hamda ijtimoiy mo'takalliflikka (mas'uliyat hissiga) ega bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, ertakdagi kibrli yovuz shaxsning mag'lubiyati va mehnatkash, sodda qahramonning g'alabasi orqali bola "yaxshilik yomonlikdan ustundir" degan universal fikrni ongiga singdiradi.

Shu bilan birga, folklor turlarining ta'lim jarayoniga raqamli platformalar orqali integratsiya qilinishi (masalan, animatsiyali ertaklar, audio-topishmoqlar, multimediali o'yinlar) bugungi kunda innovatsion yondashuv sifatida baholanmoqda. Bunday usullar orqali bolalarni ijodiy fikrlashga, mustaqil mulohaza yuritishga, ifodali so'zlash va eshitishga o'rgatish imkoniyati yanada kengayadi.

Shu jihatdan, xalq og'zaki ijodi materiallarini zamonaviy ta'lim muhitiga, ayniqsa, raqamli vositalar asosida integratsiya qilish nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki o'quvchilarda funksional savodxonlik, ijodiy tafakkur va milliy ongni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri – bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning kommunikativ, ijtimoiy, axloqiy va estetik salohiyatini ro'yobga chiqarishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, xalq og'zaki ijodi (folklor) o'zining qadimiy ildizlari, obrazli ifodalari va insonparvarlik g'oyalari bilan ta'limning barcha bosqichlarida, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ustuvor vazifalaridan sanaladi. Chunki kommunikativ kompetensiyalar faqat til bilimi emas, balki ijtimoiy munosabatlarga kirishish, tanqidiy va nostandart tafakkurni rivojlantirish, o'z fikrini aniq ifoda qilish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Bu jarayonda xalq og'zaki ijodi, ayniqsa, bola nutqini boyitish, fikrlash tarzi va estetik ta'limni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bola nutqining shakllanishi bir qancha omillarga bog'liq: oila muhiti, ta'lim muassasasidagi sharoit, bolaning psixologik holati, jismoniy rivojlanishi, estetik ta'limi va faolligi shular jumlasidandir. Xalq og'zaki ijodidagi folklor turlari – ertaklar, topishmoqlar, tezaytishlar, maqol va matallar, lirik qo'shiqlar orqali bola nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki so'zlashuv madaniyati, dunyoqarash va axloqiy tarbiya asoslarini ham o'zlashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab olib borilgan ilmiy tadqiqotlar folklor vositalarining bolalar ruhiyati, tafakkuri va nutqiga ijobiy ta'sirini isbotladi. Jumladan, A. V. Nikolskaya va E. M. Razbayeva tadqiqotlari (1958–1970) asosida bolalarda ijtimoiy foydali mehnatga hurmat tuyg'usini tarbiyalashda mehnat qo'shiqlari, marosim folklori va xalq ertaklarining o'rnini katta ekanligi qayd etilgan. Ular bola ongida adolat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi xislatlarni shakllantirishda folklor imkoniyatlarini tahlil qilganlar.



Shuningdek, F. R. Qodirovaning izlanishlarida bolalarda dialogik va monologik nutq shakllarini faol ravishda shakllantirishda folklor namunalari muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi. Ertak, rivoyat, afsona, topishmoq kabi janrlar orqali bolalarda leksik boylik, tasavvur, xotira va estetik anglash qobiliyatlarining rivojlanishiga erishiladi.

Bola faol nutq faoliyatini shakllantirishda xalq ijodining sinkretik xususiyati – ya'ni so'z, musiqa, harakat, ritm va obrazning uyg'unligi – katta ahamiyat kasb etadi. Bu haqda mutaxassislar: "Folklor barcha san'atning sarchashmasi bo'lib, xalqning madaniy merosini, dunyoqarashini, tasavvurini va axloqiy qarashlarini o'zida ifoda etadi. Bola ma'naviyatini shakllantirishda bu ijod manbai muhim rol o'ynaydi", – deb qayd etganlar. Shu bilan birga, zamonaviy metodologik yondashuvlarda folklorning raqamli resurslar bilan uyg'unlashgan holda ta'lim jarayoniga joriy etilishi muhim hisoblanadi. Bugungi ta'lim tizimi o'quvchida raqamli savodxonlik, funksional kompetensiya, ijtimoiy faollik, ijodiy fikrlash va muloqot qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi. Bu jarayonda multimedia ertaklar, elektron topishmoqlar, audio-qo'shiqlar hamda AR/VR folklor ilovalarining o'rni tobora ortib bormoqda.

E. I. Tixeeva, L. A. Penyevskaya, A. M. Leushina kabi olimlar bolalar nutqini rivojlantirishda monologik va dialogik nutqni to'g'ri uyg'unlashtirish, adabiy asarlar asosida nutqni ravonlashtirish, tasvirlash, hikoya qilish, eslab qolish va qayta ifoda qilish qobiliyatlarini faollashtirish usullarini ilmiy asosda tasniflaganlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy rivojlanishiga xalq og'zaki ijodining ta'siri borasidagi ilmiy xulosalarni umumlashtirib, ularni zamonaviy ta'lim metodikasiga integratsiya qilish vazifasi bugungi kunda dolzarb masala sifatida kun tartibida turibdi. Bu jarayonda folklor turlarini nutqiy kompetensiyalar shakllanishida qay darajada samarali qo'llash mumkinligi to'g'risida tasnifiy yondashuv zarur hisoblanadi. Zero, xalq og'zaki ijodi o'zining janrlar xilma-xilligi, tarbiyaviy yuklamaga ega obrazlari, ritmik va emotsional tuzilishi bilan nutq madaniyatini shakllantirishda benazir manbadir.

Adabiyotlarning psixologo-pedagogik tahlili shuni ko'rsatadiki, badiiy ijodni anglash va estetik qabul qilish qobiliyati shaxs rivojining markaziy elementi hisoblanadi. Bola tomonidan folklor namunalari tinglash va tushunish jarayonida nafaqat estetik zavq shakllanadi, balki uning ichki dunyosi boyiydi, fikrlash jarayonlari faollashadi, dunyoqarashi kengayadi va bilishga intilish kuchayadi.

Turk va rus tadqiqotchilari ta'kidlaganidek, folklor vositalari universal ta'limiy vosita hisoblanadi. Ular bola tug'ilgan kundan boshlab onalar va pedagoglar tomonidan faol ravishda qo'llanilib, go'dakning jamiyatga adaptatsiya jarayonida estetik va ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bolaning og'zaki ijodni tinglash jarayonida diqqati, xotirasi, tasavvuri va fikrlashi faol rivojlanadi. Shu bilan birga, unda o'ziga xos estetik did va ijodiy qobiliyatlar shakllanadi.

Masalan, Z. A. Grishchenko bolalarni savodli o'quvchi sifatida tarbiyalashda ikki bosqichni ajratadi:

- passiv bosqich – bola folklor asarini faqat eshituvchi sifatida qabul qiladi, ya'ni oddiy tinglovchi bo'ladi;
- aktiv bosqich – bola sevimli asarlarni qayta-qayta o'qishni so'raydi, o'z o'qish afzalliklarini bildirib boshlaydi va faol ishtirokchiga aylanadi.

Bu jarayonda, xususan, hikoya qilish, ifodali o'qish va suhbat kabi metodlar asosiy ta'lim texnologiyalari sifatida tavsiya etiladi. E. I. Tixeeva, M. N. Bratuxina, X. Gechel, Ch. Chakmak hamda Golech kabi olimlar faol muloqot, taassurotlarni bayon qilish, fikr yuritish va ijodiy anglash jarayonida suhbat metodining nihoyatda muhimligini ta'kidlaydilar. Suhbat bolalarda hissiy aloqani mustahkamlaydi, ularni ochiq muloqotga hamda fikrini erkin ifoda etishga undaydi.

Folklor orqali ta'limda amalga oshiriladigan badiiy so'z bilan ishlash usullari quyidagilardan iborat:

- tasvirli tinglash (ertakni tinglash va obrazni tasavvur qilish);
- rasmlar asosida hikoya tuzish;
- har bir qahramonning holatini tushuntirish;
- asar mazmunidan xulosa chiqarish;
- shaxsiy fikr asosida ertak yaratish.

Mazkur amaliy mashg'ulotlar bolaning badiiy ta'limini samarali ta'minlaydi.

Rus olimi O. S. Ushakova ta'kidlaganidek, bola badiiy matnni tinglar ekan, uni hayotdagi voqealar bilan taqqoslashga, undagi obrazlarni real hayotga moslashtirib qabul qilishga harakat qiladi. Bu holat badiiy asarning ma'naviy-tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada ochib beradi.

Shu boisdan ham folklor turlarining ta'lim jarayonidagi o'rni nafaqat nutqni shakllantirish, balki shaxsni badiiy-estetik, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy jihatdan tarbiyalashda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlashga yo'naltirilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida ma'lumotlar asosan ilmiy-nazariy manbalar, pedagogik va folklorshunoslikka oid adabiyotlar, darsliklar hamda amaliy ta'lim tajribalarini tahlil qilish orqali olindi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim, xususan, boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan folklor janrlariga oid misollar tanlab olindi. Olingan ma'lumotlar tavsifiy va qiyosiy tahlil usullari yordamida o'rganilib, folklor janrlarining nutqiy, axloqiy va estetik rivojlanishga ta'siri aniqlashtirildi. Tahlil jarayonida folklor namunalarining bolalar nutqini rivojlantirishdagi funksional imkoniyatlari umumlashtirildi va ularning ta'lim jarayoniga integratsiya qilish samaradorligi baholandi. Natijada, xalq og'zaki ijodi ta'limda muhim tarbiyaviy va didaktik manba ekanligi ilmiy asosda yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, quyidagi jadvalda xalq og'zaki ijodi janrlarining turli nutqiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi o'rni hamda ularni ta'lim jarayonida qo'llashning amaliy yo'nalishlari tizimli tarzda tasnif etilishi mumkin (qarang: 1-jadval).

1-jadval: Xalq og'zaki ijodi janrlari va ularning ta'limdagi nutqiy rivojlanishga ta'siri

Folklor janri	Nutqiy rivojlanishga ta'siri	O'qitishdagi amaliy qo'llanish shakli
Ertaklar	Ifodaviy nutq, tasvirlash qobiliyati; xayol va estetik tafakkurni rivojlantirish	Audio va video ertaklarni tinglash; rasmga qarab ertak tuzish; ertakni qayta hikoya qilish
Afsona va rivoyatlar	Ta'limiy va axloqiy mazmunli so'zlashuv; monologik nutqni shakllantirish	Qahramonlar haqida fikr bildirish; rivoyatdan xulosa chiqarish mashqlari
Topishmoqlar	Mantiqiy fikrlash; ifodadagi aniqlik; leksik boylik	Topishmoq o'yinlari; topishmoq tuzish mashqlari
Maqol va matallar	Konseptual fikrni qisqa bayon qilish; qiyoslash, baholash qobiliyati	Maqoldan hikoya yozish; maqolni vaziyatga moslash
Tezaytirmalar	Artikulyatsiyani rivojlantirish; nutqiy ravonlik	Tanlov asosida tezaytirma musobaqalari; intonatsiyali o'qish mashqlari
Qo'shiqlar (bolalar, mehnat, marosim)	Emotsional ifoda; intonatsiya va talaffuzni boyitish	Musika yordamida she'r o'rganish; jamoaviy qo'shiq ijrosi
Latifalar va hazillar	Ko'p ma'nolilikni tushunish; kontekstda fikr yuritish	Ssenariy tuzish mashqlari; latifani qayta yozish
O'yin folklori (sanamalar)	Dialogik nutq; kommunikativ qobiliyat	Guruhli rivojlantiruvchi o'yinlar; rolli nutqiy mashqlar

Jadvalda keltirilgan tasnifdan ko'rinib turibdiki, har bir folklor janri o'ziga xos nutqiy rivojlantiruvchi vazifani bajaradi. Masalan, tezaytirmalar orqali bola nutqidagi artikulyatsiya ravonligi ta'minlansa, topishmoqlar orqali fikrlash tizimini aniqlash, mantiqiy bog'lanishlarni tushunish qobiliyati rivojlanadi. Ertaklar va rivoyatlar bolalarning ifodali so'zlashuv, syujet tuzish va hikoya qilish salohiyatini oshiradi. Ertaklar orqali bolalarning xayoliy tasavvuri, hodisalar orasida bog'liqlik qurish, syujet tuzish, qahramon xarakteri va voqealarni tavsiflash ko'nikmalari shakllanadi.

Misol. "Zumrad va Qimmat" ertagi o'qilgandan so'ng o'qituvchi savol qo'yadi: Zumrad qanday qahramon? Nega u yaxshi munosabatga sazovor bo'ldi? Bola javob beradi: "Zumrad mehribon, halol, itoatkor qiz. Uning mehnati va ezguligi uchun mukofot oladi. Qimmat esa tanbal va badxulq, shuning uchun jazolanadi".

Nutqiy tahlil. Bu yerda bola qahramon xislati, sabab-oqibat munosabati, fikrni erkin ifoda etish va axloqiy xulosa chiqarishni amalga oshirdi.

Maqol va matallar bilan ishlash qisqacha va aniq fikr bayonini shakllantiradi. Maqollar orqali bola hayot tajribasi va umumiy xulosalarni so'z bilan bayon qilish, fikrni qisqa va aniq ifoda etishni o'rganadi.

Misol. Maqol: "Yomon to'ndan yaxshi ism yaxshi". O'qituvchi savoli: Bu maqol nima demoqchi? Bola javobi: "Odamning kiyimi emas, gapi, odobi, ismi, yaxshi ishlari muhim. Ism degani – obro'".

Nutqiy tahlil. Bolada badiiy ma'no anglash, abstrakt tushunchani izohlash, fikrni qisqalik bilan bayon qilish salohiyati shakllandi.

O'yin folkloridagi dialogik shakllar (sanamalar) bolalarda kommunikativ ko'nikmalar, navoiyatsiz so'zlashuv, rohatli ifoda va so'zni navbat bilan qo'llashni shakllantiradi.



Misol. O'yin: "Qush uchdi, qush uchdi... Mushuk uchdi!" Bolalar "uchmadi!" deb javob berishadi. Bu jarayonda bola muloqotda ishtirok etish, reaksiya bildirish, diqqat va eshitish qobiliyatini oshiradi.

Bu esa folklor janrlaridan foydalanish faqat axloqiy tarbiya emas, balki muloqot madaniyati, nutqiy qobiliyat va ijodiy salohiyatni shakllantirishda ham samarali ekanligini ko'rsatadi. Ushbu usullar bolalarda mulohazali tinglash, hissiy idrok, so'zlashuv madaniyati kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodini faqat adabiy yodgorlik sifatida emas, balki amaliy nutqiy-tarbiyaviy texnologiya sifatida talqin qilish mumkin. Uning janrlari va o'qitish jarayonida faol qo'llanilishi bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan integrativ yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Xalq og'zaki ijodi – bola nutqini rivojlantirishda lo'nda va ta'sirchan vositadir. Undagi janrlar ta'lim jarayoniga to'g'ri integratsiya qilingan taqdirda, bolalar nafaqat til bilimini, balki fikrlash, his etish hamda muloqot ko'nikmalarini ham mukammallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayev T., Safarov O., Rahmatullayev S. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 2010. – 368 b.
2. Imomov K. O'zbek xalq folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 256 b.
3. Safarov O. Folklor va bolalar adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2007. – 184 b.
4. Jo'rayev M. O'zbek folklori poetikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 220 b.
5. Rahmonov N. Xalq og'zaki ijodi va tarbiya masalalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 148 b.
6. Qosimova K., Matyoqubova R. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: Tafakkur, 2015. – 192 b.
7. Umarov A. Folklor asarlarining tarbiyaviy ahamiyati // Xalq ta'limi. – 2018. – № 4. – B. 45–49.
8. Abdullayeva D. Boshlang'ich ta'limda xalq og'zaki ijodidan foydalanish usullari // Pedagogik mahorat. – 2020. – № 2. – B. 61–65.
9. Saidova Sh. Folklor namunalari orqali o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish // Ta'lim va tarbiya. – 2021. – № 3. – B. 72–76.
10. G'afforov I. Xalq og'zaki ijodi – milliy tarbiya manbai. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012. – 160 b.
11. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 304 b.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Milliy ma'naviyatni yuksaltirishga doir" qaror va farmonlari to'plami. – Toshkent, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.